FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

2022 - yil 29 - dekabr 337-11-157-Q/22 Qo‘shtepa tuman hokimligi

Qo‘shtepa tumani hududidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.

Qo‘shtepa tumanida “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari”ga rioya etilishini ta’minlash, tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qo‘shtepa tuman ichki ishlar bo‘limining Qo‘shtepa tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi xati inobatga olinsin.

2. 4K 864 “Marg‘ilon temir yo‘l stansiyasi-Qumtepa q. -Qoraqushchi q. -Oxunboboyev temir yo‘l stansiyasi” avtomobil yo‘lidan 1.8-2.2 kilometr, 2.9-3.3 kilometr, 6.8-7.3 kilometrlari oralig‘iga transport vositalarini tirbandligini oldini olish maqsadida 3.28 (To‘xtab turish taqiqlanadi) yo‘l belgisini belgilangan

tartibda o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Qo‘shtepa tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Mavlonov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (Sh.Umurzakov)larga ushbu yo‘l belgisini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror “Istiqbol yo‘li” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.V.Novikov**